DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-05-33 Pages: 313-319

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

LINGUISTIC FOUNDATIONS OF LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF DISTANCE EDUCATION TERMS

Gulnoza Khalilovna Khidirova
Teacher of the Department of Applied English, KarSU
Doctor of Philosophy in Philology
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: distance learning, terminology, lexicography, terminography, lexicographic interpretation, definition, terminological dictionary, borrowed term, orthological form.

Received: 18.09.26
Accepted: 19.09.26
Published: 20.09.26

Abstract: This article examines the issues of lexicographic description of the terminology of distance learning, which is being formed as a result of the rapid development of the modern education system. The semantic content of terms used in the field of distance education, their nominative features, the process of their assimilation, their place in the terminological system, and the problems of their representation in explanatory and terminological dictionaries are analyzed. The terms of distance education in English and Uzbek are analyzed comparatively and criteria important for their lexicographic interpretation are proposed.

MASOFAVIY TA’LIM TERMINLARINI LEKSIKOGRAFIK TALQIN QILISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Gulnoza Xalilovna Xidirova
QarDU Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
e-mail: gulnozaxidirova190@gmail.com
Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, terminologiya, leksikografiya, terminografiya, leksikografik talqin, definitsiya, terminologik lug‘at, o‘zlashma termin, ortologik shakl.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimining jadal rivojlanishi natijasida shakllanayotgan masofaviy ta’lim terminologiyasini leksikografik jihatdan tavsiflash masalalari tadqiq etiladi. Masofaviy ta’lim sohasida qo‘llanayotgan terminlarning semantik mazmuni, nominativ xususiyatlari, o‘zlashish jarayoni, terminologik tizimdagi

o‘rni hamda ularni izohli va terminologik lug‘atlarda ifodalash muammolari tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi masofaviy ta’lim terminlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning leksikografik talqini uchun muhim bo‘lgan mezonlar taklif etiladi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОГО ТОЛКОВАНИЯ ТЕРМИНОВ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Гулноза Халиловна Хидирова
Преподаватель кафедры практического английского языка КарГУ
Доктор философии по филологическим наукам
Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дистанционное обучение, терминология, лексикография, терминография, лексикографическая интерпретация, дифиниция, терминологический словарь, заимствованный термин, ортологическая форма.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы лексикографического описания терминологии дистанционного образования, которая формируется в результате стремительного развития современной системы образования. Анализируются семантическое содержание, номинативные свойства, процесс усвоения, место в терминологической системе терминов, используемых в сфере дистанционного образования, а также проблемы их выражения в толковых и терминологических словарях. Проводится сравнительный анализ терминов дистанционного обучения на английском и узбекском языках и предлагаются критерии, важные для их лексикографической интерпретации.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga faol kirib kelishi natijasida masofaviy, elektron, onlayn va aralash ta’lim shakllariga oid yangi tushunchalar hamda ularni ifodalovchi terminlar tizimi shakllanmoqda. Mazkur terminologik qatlamning muhim xususiyatlaridan biri uning xalqaro xarakterga ega ekanligi va ayniqsa, ingliz tilidagi terminlarning boshqa tillarga faol o‘zlashayotganidir. Shu jihatdan masofaviy ta’lim terminologiyasini nafaqat lingvistik, balki leksikografik nuqtayi nazardan ham tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy ta’lim terminologiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ushbu soha terminlarining shakllanishi, inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tiliga kirib kelishi va ularning ortologik shaklini belgilash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda masofaviy ta’lim terminlarini tizimlashtirish, inglizcha o‘zlashmalarning yagona ortologik shaklini aniqlash va

ularni leksikografik talqin qilish mezonlarini belgilash asosiy maqsad sifatida ko‘rsatilgan. Terminologik birlikning lug‘atdagi tavsifi oddiy so‘zning izohidan farq qiladi. Chunki termin, avvalo, muayyan fan yoki soha doirasida shakllangan tushunchaning nomi hisoblanadi. Terminologik ishning asosiy vazifalari tushunchalarni tizimli yig‘ish, tavsiflash, qayta ishlash va ularning nomlanish shakllarini taqdim etish bilan bog‘lanadi. Shuningdek, mazkur standart tushuncha va uning ifodasi o‘rtasidagi munosabatni aniq belgilash hamda definitsiyani shakllantirish tamoyillarini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida terminologik birliklarning shakllanishi, taraqqiyoti, semantik xususiyatlari, o‘zlashishi va lug‘atlarda aks ettirilishi masalalari izchil tadqiq etib kelinmoqda. Terminologiya va leksikografiya masalalarining ilmiy asoslarini yaratishda H.Dadaboyev,[4] S.Akobirov,[3] S.Ibrohimov,[6] R.Doniyorov, E.Begmatov, A.Madvaliyev[7] kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. A.Madvaliyevning qayd etishicha, terminologiyani tartibga solish va me’yorlashtirish jarayoni uni leksikografik jihatdan qayd etish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, terminlarning lug‘atlarda aniq va izchil ifodalanishi terminologik tizimning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

S.Ibrohimov kasb-hunar leksikasini muayyan soha bilan bog‘liq holda shakllangan maxsus leksik qatlam sifatida tadqiq etib, uning tarkibidagi birliklarning ma’no va qo‘llanish xususiyatlarini tizimli ravishda yoritadi.

Mazkur ilmiy izlanishlar zamonaviy soha terminlarini, xususan, yangi shakllanayotgan masofaviy ta’lim terminologiyasini leksikografik jihatdan tavsiflash uchun muhim nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mazkur ilmiy qarashlar masofaviy ta’lim terminlarini leksikografik talqin qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy masofaviy ta’lim terminlarining ingliz tilidan o‘zlashishi, variantliligi, orfografik me’yorlashuvi, semantik izohlanishi va lug‘atlarda tizimli aks ettirilishi masalalari yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Shundan kelib chiqib, masofaviy ta’lim terminlarining lingvistik xususiyatlarini aniqlash va ularni leksikografik jihatdan me’yoriy talqin qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Muhokama

H.Dadaboyev termin o‘zlashtirish yo‘llari xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni ta’kidlagan:

1) fan va texnikaga tegishli boshqa tillardan o‘zlashgan terminlarni qanday qabul qilishga doir bir qancha usullarning mavjudligi;

2) ayrim tushuncha, narsa-buyum, vaziyatlarni ifodalashda adabiy til bilan birga o‘zbek tili shevalari va lahjalariga oid so‘z zaxirasidan foydalanib kelinayotganligi;

3) o‘zbek tilida termin hosil qilishda so‘z yasovchi qo‘shimchalarning ishtirokini unumli ifoda etilayotgani;

4) kalkalashning turlari yordamida terminlar hosil qilishga jiddiy diqqat qaratilayotgani;

5) yuqoridagi usullarning birortasi ham qo‘l kelmagan holda chet tili terminlarining aynan, tayyor holda o‘zbek terminologiyasi tizimiga qabul qilinayotgani.[5]

Akobirov o‘zbek terminologiyasini o‘rganishda terminni umumxalq tilidan ajralgan, mustaqil birlik sifatida emas, balki umumxalq leksikasi negizida shakllanadigan va muayyan terminologik tizim tarkibida faoliyat ko‘rsatadigan leksik birlik sifatida talqin qiladi.[3] Uning “Til va terminologiya” asarida terminologiyaning til taraqqiyoti va lug‘at tarkibining boyishi bilan uzviy bog‘liqligi masalasiga e’tibor qaratiladi. Keyingi tadqiqotlarda ham Akobirov terminning muayyan terminologik tizim a’zosi ekanligi va umumxalq tilidagi birliklar asosida shakllanishini ta’kidlagani qayd etilgan.

Bu qarash masofaviy ta’lim terminologiyasi uchun ham muhim metodologik asos bo‘la oladi. Chunki masofaviy ta’lim, onlayn ta’lim, elektron ta’lim, videokonferensiya, platforma, vebinar, LMS, Moodle, virtual auditoriya kabi birliklar bir-biridan alohida holda emas, balki yagona masofaviy ta’lim terminologik tizimi tarkibida shakllanadi va qo‘llanadi. Demak, ularni lug‘atga kiritishda faqat so‘zning tashqi shaklini qayd etish yetarli emas, balki uning terminologik tizimdagi o‘rni, ma’nosi va boshqa terminlar bilan munosabati ham hisobga olinishi kerak.

Akobirovning termin haqidagi yondashuvida yana bir muhim jihat mavjud: har qanday termin so‘z bo‘lishi mumkin, biroq har qanday so‘z termin bo‘la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan masofaviy ta’lim leksikasidagi birliklarni termin sifatida belgilashda ularning muayyan sohaga xosligi, maxsus tushunchani ifodalashi va qo‘llanish doirasining chegaralanganligi asosiy mezonlardan biri bo‘ladi.

Natijalar. S.Ibrohimovning tadqiqoti maxsus leksikaning shakllanishi va tizimlanishini o‘rganish jihatidan terminologik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, kasb-hunar leksikasini alohida tizim sifatida o‘rganish tajribasi masofaviy ta’limga oid terminlarni ham muayyan sohaviy leksik tizim sifatida tasniflash va ularning semantik guruhlarini aniqlash uchun metodologik asos bo‘la oladi.[6]

A.Madvaliyevning “O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari” asari terminologiya va leksikografiyaning o‘zaro munosabatini tadqiq etishda bevosita ahamiyatga ega. Olim terminlarni tartibga solish, me’yorlashtirish va lug‘atlarda aks ettirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur yondashuv masofaviy ta’lim terminlarini lug‘at maqolasida berishda terminning me’yoriy shakli, ma’nosi, qo‘llanish sohasi va variantlarini aniqlash zarurligini asoslash imkonini beradi.[7]

Olimlarning tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, maxsus leksik birliklarni muayyan soha doirasida tizimlashtirish, ularning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda me’yoriy shaklini belgilash terminologik va leksikografik tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur nazariy qarashlar masofaviy ta’lim terminlarini leksikografik talqin qilishda terminlarning sohaviy mansubligi, semantik aniqligi, me’yoriy shakli va lug‘at maqolasida berilish tamoyillarini belgilash uchun lingvistik asos vazifasini bajaradi.

Masofaviy ta’lim terminologiyasi tarkibidagi birliklarni leksikografik jihatdan tavsiflashda, avvalo, terminning qaysi tushunchani ifodalashi aniqlanishi lozim. Masalan, distance education, online education, e-learning, blended learning, learning management system (LMS) kabi birliklarning har biri muayyan konseptual mazmunga ega. Ularni lug‘atda faqat so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali berish terminning mazmuniy chegaralarini to‘liq ochib bermaydi.

Shu sababli terminologik lug‘at maqolasida quyidagi komponentlarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

1. terminning asosiy shakli;
2. uning o‘zbek tilidagi muqobili;
3. tushunchaning aniq definitsiyasi;
4. sinonimik yoki variant shakllari;
5. qisqartma shakli mavjud bo‘lsa, uning to‘liq shakli;
6. terminning kelib chiqishi;
7. sohaviy belgisi;

Bunday yondashuv terminni oddiy tarjima birligi sifatida emas, balki muayyan tushunchaning terminologik belgisi sifatida tavsiflash imkonini beradi. Zamonaviy terminologik yondashuvda ham terminologik resurslar tushuncha va unga tegishli terminologik ma’lumotlarni tizimli tarzda taqdim etishga asoslanadi.

Masofaviy ta’lim terminlarini lug‘atlarda berishda bir qator muammolar mavjud. Birinchi muammo terminning variantdorligi bilan bog‘liq. Bir tushuncha turli matnlarda turlicha shakllarda ifodalanishi mumkin. Masalan, e-learning, elearning, e-learning education, elektron ta’lim kabi shakllarning qo‘llanishi terminologik birlikning yagona shaklini belgilash zaruratini yuzaga keltiradi. O‘zlashma terminlarning imloviy moslashuvi bilan bog‘liq. Masofaviy ta’lim terminologiyasida ingliz tilidan o‘zlashgan ko‘plab birliklar asl shakliga yaqin holda qo‘llanadi. Bunda o‘zbek tilining grafik, fonetik va morfologik imkoniyatlari bilan o‘zlashma birlikning dastlabki shakli o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli terminning lug‘atda beriladigan shakli uning me’yoriy va ortologik maqomini ham hisobga olishi kerak.

Masalan, “masofaviy ta’lim”ni shunchaki “masofadan turib ta’lim olish” tarzida izohlash uning ilmiy mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Definitsiyada ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi

o‘rtasidagi masofa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim jarayonining tashkiliy va pedagogik xususiyatlari kabi asosiy belgilar aks etishi maqsadga muvofiq.

Terminologik lug‘at yaratishda eng muhim masalalardan biri termin bilan tushunchani aynanlashtirib yubormaslikdir. Bir termin bir nechta variantda ifodalanishi yoki aksincha, bir-biriga yaqin terminlar turli tushunchalarni anglatishi mumkin. Shu bois lug‘at tuzishda avval tushunchalar tizimi shakllantirilib, keyin ularga mos terminlar belgilanadi.

Masofaviy ta’lim terminologiyasida distance education, online learning, e-learning, blended learning, hybrid learning kabi birliklarning o‘zaro munosabatlarini ham aynan shu nuqtayi nazardan o‘rganish zarur. Ularning ayrimlari semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, mazmuniy hajmi va konseptual chegaralari bir xil emas. Zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu birliklarning semantik maydoni, konseptual chegaralari va tillararo muvofiqligi alohida tadqiq etilmoqda.

Masofaviy ta’lim terminlari misolida olib borilgan leksikografik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, lug‘at maqolasi (dictionary entry) izohlanayotgan termin haqidagi lingvistik ma’lumotlarni tizimli ravishda aks ettiruvchi bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Biroq ularning tarkibi lug‘atning turi, maqsadi va foydalanuvchilariga ko‘ra farqlanishi mumkin. Asosiy komponentlar quyidagilardan iborat:

Bosh so‘z (headword, entry word) – lug‘atda izohlanayotgan terminning asosiy, me’yoriy shakli. Masalan, distance learning, online education kabi birliklar.

Grammatik va funksional belgi (grammatical/functional label) – terminning so‘z turkumi, grammatik xususiyati yoki muayyan soha doirasida qo‘llanishini ko‘rsatadi.

Fonetik xarakteristika (transcription/pronunciation) – terminning to‘g‘ri talaffuzini ifodalaydi. Elektron lug‘atlarda bunga qo‘shimcha ravishda Britaniya va Amerika talaffuzining audio variantlari ham berilishi mumkin.

Semantizatsiya (definition) – termin ifodalagan maxsus tushunchaning mazmunini aniq va ilmiy tarzda ochib beradi. Bu lug‘at maqolasining eng muhim komponentlaridan biridir.

Illyustrativ material (example/quotation) – terminning real nutq yoki sohaviy kontekstdagi qo‘llanishini ko‘rsatib, uning ma’nosi va funksional xususiyatlarini aniqlashtiradi.

Etimologik ma’lumot (etymology) – terminning kelib chiqishi va o‘zlashish manbasini izohlaydi. Mazkur komponent barcha lug‘atlarda emas, asosan etimologik va ayrim o‘quv hamda terminologik lug‘atlarda uchraydi.

Masofaviy ta’lim terminlarini leksikografik talqin qilishda lug‘at maqolasining asosiy yadrosini bosh so‘z, grammatik belgi va semantik izoh tashkil etadi; transkripsiya, audio talaffuz, illyustratsiya va etimologik ma’lumotlar esa lug‘at turiga qarab qo‘shiladigan qo‘shimcha parametrlar hisoblanadi. Bunday kompleks yondashuv terminning me’yoriy shakli, mazmuni, talaffuzi va qo‘llanish xususiyatlarini to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa. Masofaviy ta’lim terminologiyasining jadal rivojlanishi ushbu sohaga oid terminlarni tizimlashtirish va ularni ilmiy asosda lug‘atlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonda terminning faqat tarjima shaklini belgilash yetarli emas. Uning tushunchaviy mazmuni, definitsiyasi, ortologik shakli, variantlari, kelib chiqishi va qo‘llanish doirasi ham kompleks ravishda tavsiflanishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim terminlarini leksikografik talqin qilishda “tushuncha – termin – definitsiya – muqobil – variant – qo‘llanish” tizimiga asoslanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv terminologik birliklarning izchil va me’yoriy tavsifini ta’minlaydi hamda kelgusida masofaviy ta’lim terminlarining elektron va an’anaviy terminologik lug‘atlarini yaratish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, terminologik lug‘at yaratishda tilshunos, terminograf, soha mutaxassisi va axborot texnologiyalari mutaxassisining hamkorligi muhimdir. Chunki masofaviy ta’lim terminologiyasi pedagogika, tilshunoslik va raqamli texnologiyalar kesishgan nuqtada shakllanayotgan dinamik terminologik tizimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xidirova G.X. Masofaviy ta’lim terminologiyasi: ortologik shakli va leksikografik talqini (ingliz va o‘zbek tili materiallari asosida). filol. fan. fals. dokt. diss. avtoref. – Termiz, 2026. – 56 b.

2. Xidirova G.X., Zayniddinova D. Masofaviy ta’lim terminologiyasida inglizcha o‘zlashmalar va ularni o‘zlashtirish yo‘llari. 2023.

3. Акобиров С. Тил ва терминология. – Тошкент, Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1968. – 39 б.

4. Дадабоев Ҳ. Ўзбек тилида аффиксация усули билан ясалган сифат терминлар. “Ўзбек тилшунослиги: тараққиёти ва истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани матер. – Тошкент, 2016. –Б. 193-199. – Б. 87.

5. Дадабев Ҳ. Ўзбек терминологияси. –Тошкент, 2019. – 118 б.

6. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I-III т. – Тошкент: Фан, – Б. 1956-1959.

7. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 28-30.